



## PEDAGOGIK QOBILIYAT TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

### PEDAGOGICAL ABILITY AS A FACTOR IN INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY

#### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

**Majidova Feruza Maxmud qizi**

*Psixologiya va xorijiy tillar institute 1-bosqich magistranti*

#### Annotatsiya.

Ushbu maqolada pedagogik qobiliyat samaradorligi hamda ta'lif tizimidagi kamchilik va yutuqlar o'r ganilgan. Shuningdek Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ayniqsa, siyosiy sohalarda kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar va iqtisodiy sohadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatiga ham ta'sir etib, katta o'zgarishlar yasash kerakligini taqozo etmoqda. Pedagogik qobiliyat, uning turlari, ahamiyati, mohiyati tahlil etilgan, ta'lif sifatini oshirishda o'qituvchining pedagogik qobiliyatini, uni rivojlantirish va undan foydalanish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Yoshlar bu bizning kelajagimiz. Shuning uchun ham ularning tarbiyasi eng dolzarb masaladir. Mustaqillik tufayli o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan bo'layotgan voqe'a-hodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli qilib shakllantirish, mustaqil mamlakatimizning ishonchli va intellektual salohiyatli fuqarolari etib tarbiyalash uzlucksiz ta'lif tizimining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi uchun jamiyatning barcha insititutlari mas'uldir. Ayniqsa, barkamol avlodni shakllantirishning amaliyotini ta'minlashda, bu boradagi ilmiy muammolarning echimini topish, olg'a surilgan nazariy xulosa va tavsiyalarni ta'lif-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish jamiyatimizning ota-onalar, tarbiyachi-o'qituvchilari, uzlucksiz ta'lif tizimi oldiga qo'yadigan davlat buyurtmasini samarali bajarilishi garovidir.

**Kalit so‘zlar:** qobiliyat turlari, ta’lim sifati, o‘qituvchi mahorati, kompetentlik, allomalar merosi, hayotiy qadriyatlar, ma’naviy meros, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, mustaqil ta’lim olish qobiliyati.

### **Abstract.**

*This article studies the effectiveness of pedagogical skills and the shortcomings and achievements of the education system. Also, the sharp changes observed in the socio-economic, cultural and especially political spheres in the world and the instability in the economic sphere affect the worldview, behavior, lifestyle and professional activities of people, requiring major changes. Pedagogical skills, their types, importance, essence are analyzed, and the pedagogical skills of a teacher in improving the quality of education, the possibilities of its development and use are discussed.*

*Youth are our future. Therefore, their education is the most urgent issue. In Uzbekistan, which is moving along its path of development due to independence, ample opportunities are being created to educate young people who have learned the secrets of communication, who think in a new way, who freely react to events and phenomena, who are creative and critically observing.*

*The formation of the young generation with high spirituality, the upbringing of confident and intellectually capable citizens of our independent country is an urgent task of the continuing education system. All institutions of society are responsible for the issue of raising a harmonious generation. In particular, in ensuring the practice of forming a harmonious generation, finding solutions to scientific problems in this regard, implementing the theoretical conclusions and recommendations put forward in educational practice are the key to the effective implementation of the state order that our society places before parents, educators, and the continuing education system.*

**Keywords:** types of abilities, quality of education, teacher skills, competence, heritage of scientists, vital values, spiritual heritage, pedagogical technologies, pedagogical skills, ability to receive independent education.

### **Аннотация.**

*В данной статье рассматривается эффективность педагогического мастерства, а также недостатки и достижения системы образования. Также резкие изменения, наблюдаемые в социальной, экономической, культурной и особенно политической сферах в мире и нестабильность в экономической сфере, влияют на мировоззрение людей, поведение, образ жизни, их профессиональную деятельность, вынуждая к необходимости кардинальных изменений. Анализируются педагогические способности, их виды, значение, сущность, обсуждаются педагогические способности учителя, возможности их развития и использования в целях повышения качества образования.*

*Молодежь - наше будущее. Именно поэтому их образование является наиболее актуальным вопросом. Благодаря независимости Узбекистан, находящийся на своем пути развития, создает широкие возможности для воспитания молодежи, познавшей секреты общения, свободно реагирующей на происходящие события, творчески и критически наблюдающей.*

*Формирование молодого поколения с высоким уровнем духовности, воспитание из него надежных и интеллектуально способных граждан нашей независимой страны является актуальной задачей системы непрерывного образования. Все институты общества несут ответственность за воспитание совершенного поколения. В частности, в обеспечении практики формирования компетентного поколения, поиске решений научных проблем в этой связи, применении передовых теоретических выводов и рекомендаций в образовательной практике родителей, воспитателей и системы непрерывного образования нашего общества является гарантшей эффективной реализации государственного заказа.*

**Ключевые слова:** виды способностей, качество образования, педагогическое мастерство, компетентность, научное наследие, жизненные ценности, духовное наследие, педагогические технологии, педагогическое мастерство, способность к самостоятельному обучению.

## KIRISH

Ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalar ongida pedagogik faoliyatga oid zarur ko'nikmalarini shakllantirish hamda malakalar bilan qurollantirish dolzARB masalaga aylanib ulgurdi. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda, ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirish zamonaviy boshqaruv uslublarini o'zlashtirishning pedagogik texnologiyalaridan xabardor bo'lish zaruratini ham qo'ymoqda. Fan va texnikaning rivoji ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatib, ta'lim tizimida, jumladan, iqtisodiy ta'limda ham o'z aksini topmoqda. O'zgarishlar sharoitida iqtisodiy ta'lim jamiyatning rivojlanishi va me'yorida boshqarilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Bunda

aynan iqtisodiy ta’lim bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagoglarni kasbiy kompetentligini shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy inqiroz, yangilanish va yuksalish bosqichlarida aynan ta’lim tizimining iqtisodiyot sohasini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirga kelib bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagoglarni tayyorlashda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish tadbirlar (islohot)i esa, talaba shaxsining va akademik guruhlarda mashg‘ulotlarni tashkil etishning psixologik jihatlarini hisobga olgan sharoitdagina ijobiy samara berishi mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim mazmuni, kadrlar tayyorlashni yaxshilash vazifalarini, jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy -axloqiy fazilatlarini shkllantirish, bu borada M.Ochilovning “O‘qituvchi odobi”, “Muallim qalb me’mori”, Munavvarovning “Pedagogika” kabi bir qancha asarlaridan foydalangan holda zamonaviy, raqobatbardosh, ma’naviy ahloqiy yetuk kadrlar tayyorlash lozim.

Demak bo‘lajak pedagoglarga o‘qituvchi odobiga doir bilim va malakalar berish zarurati pedagogik jarayonning ehtiyojlaridan obyektiv ravishda kelib chiqadi.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, pedagogik qobiliyatni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar pedagogik qobiliyatni amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyquist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’mintchisi (G.Schreder, M.Vorwerg), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo’llovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida o‘rganishgan. Rossiyalik olimlardan L.I. Ansiferova (1988), D.N. Zavalishina (1988), Ye.F. Ribalko (1988), N.V. Kuzmina (1990), N.V. Yakovleva (1994), A.K. Markova (1996), M.A. Choshanov (1996), Yu.V. Vardanyan (1998), T.V. Zamorskaya (1998), L.V. Temnova (2001), O.A. Anisimova (2002), S.S. Sedova (2002), A.A. Derkach (2003), V.G. Zazikin (2003), I.A. Zimnyaya (2003), Yu.G. Tatur (2004), A.I. Yushko (2005), A.I. Subetto (2006), Z.M. Albekova (2010) va boshqalar tomonidan so‘nggi yillarda kompetentlik va pedagogik qobiliyat masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin. Yangi ta’lim islohotlari sharoitida o‘qituvchilarning pedagogik qobiliyati bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish mamlakatimiz pedagog olimlaridan N.A.Muslimov, Z.Q.Ismoilova, Sh.S.Sharipov, Q.Abdullayeva, N.Gaipova, O.Qo‘ysinov, Q.Olimov, Sh.Abdurahmonov, M.Qodirov, R.Xaydarova va boshqalar, psixolog olimlaridan M.G. Davletshin, E.G. G‘oziyev, Sh.R. Baratov, V.M. Karimova, O.E. Hayitov va boshqalarning ishlarida ko‘zga tashlanadi.

Qobiliyatlар muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma`lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar olimlar izlanishlar olib borganlar.

Insonning imkoniyatlarini o‘rganishga Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananov, N.V. Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasisheb), G‘arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F. Galton, V.Shtern, U. Olloport, K.Rodgers) kabilar katta hissa qo‘sghanlar. Ushbu muammo ustida O‘zbekiston psixolog olimlari (E.G‘oziyev, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, V.A.Tokareva va boshqalar) ham izlanish olib borganlar.

Pedagogik qobiliyatlar tarbiyasi birinchi bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Desterverg 1-chi bo‘lib pedagogik qobiliyat, persteptiv qobiliyatlar haqida gapirib bu masalaga e’tiborini qaratdi. U pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat’iy erkinlikka e’tibor berdi. U o‘qituvchining bilim orttirishlik qobiliyati tushunchasini ilgari surdi. A.S.Makarenko o‘z tajribasiga asoslanib, “agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lsa, u yaxshi pedagog bo‘lishi mumkin”, deydi.

**Psixolog olim Olga Matveyeva quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tadi:**

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: O‘qituvchining o‘quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.

2. Voqealarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o‘qituvchining sergakligida, o‘quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko‘ra olishida namoyon bo‘ladi. SHunda o‘qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o‘qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she’r va qo‘shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: O‘qituvchining o‘z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo‘naltiradi, vaqtini, harakat sur’atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish, hayot marhamatlaridan rohatlanish.

5. Mantiqiy qobiliyat: Mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish.

6. Shaxsning ichki qobiliyati: O‘z-o‘zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo‘rquv yoki noerkinlik tuygusi kamdan-kam holda bo‘ladi.

V.A.Krutetskiyning Pedagogik qobiliyat turlari asosidagi model mavjud shuni ko‘rib chiqamiz(1- rasm).



Yuqorida jadvalda Pedagog xodimlarning qobiliyatini aniqlash uchun 40ta xodimdan interaktiv metodlardan foydalandik. Tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, tajriba guruhida o‘qituvchilarning 4 nafari topshiriqlarni “3” ga bajargan, nazorat guruhida esa 9 nafar, tajriba guruhida 10 nafar, nazorat guruhida

<b>Guruhi</b>	<b>soni</b>	<b>o‘qituvchilar miqdori</b>	<b>o‘qituvchilar tomonidan tanlangan interaktiv metodlarning bajarilishi</b>		
			<b>56-70%</b>	<b>71-85%</b>	<b>86-100%</b>
<b>Nazorat</b>	<b>2 ta</b>	<b>20 ta</b>	<b>9</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Tajriba</b>	<b>2 ta</b>	<b>20 ta</b>	<b>4</b>	<b>10</b>	<b>6</b>

esa 7 nafar o‘qituvchi topshiriqlarni “4” ga bajargan. Topshiriqlarni “5” ga bajargan o‘qituvchi soni nazorat guruhida 4 nafar, tajriba guruhida esa 6 nafarni tashkil etdi. Bilimlarni o‘zlashtirish ajratib olingan interaktiv metodlar yordamida amalga oshirilgan guruhlarda ta’limning samaradorlik darjasini ancha oshganligi kuzatildi.

## **XULOSA**

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o‘qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo‘lmog‘i va tarbiyalab yetishtirilmog‘i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro‘ orttira olish qobiliyati, to‘g‘ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsiyonal - irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi.

O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O‘quvchilar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o‘quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo‘yanliklarini tasavvur etadi. Ko‘pchilik o‘qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi katta o‘qituvchilarga, o‘quv materiali oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his - hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho‘ziq zeriktiradigan nutq o‘quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo‘yadi. Ayrimlar tez, ayrimlar sekin gapirishga moyil bo‘ladilar. O‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun o‘rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi.

Olib borilgan kuzatuvlar va savol-javoblarning tahlillari hamda umumiyligida xulosalardan kelib chiqib pedagogik faoliyatda o‘quvchilar bilan hamkorlik usuli asosida mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida e’tibor berish mumkin bo‘lgan jihatlar haqida ayrim tavsiyalarni berib o‘tmoxchimiz. Jumladan:

- Avvalo, o‘qituvchi faoliyatining faol o‘zaro ta’sirini ta’minalash hamda buning uchun pedagogik qobiliyatlarning rivojlanganligi maqsadga muvofiq.
- O‘quv jarayonida ta’lim oluvchidagi shaxsiy faollik zaruriyatiga e’tibor qaratilishi zarur.
- Bunda o‘qituvchilarda kommunikativ qobiliyatning shakllanganligi hamda uni muntazam rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.
- O‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirishda adekvatlik va ishonchlilik holatlariga e’tibor berish zarur.
- Pedagogik texnikaning shakllanishi shaxsning sifatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, nutqni ifodali, sof, savodli bo‘lishi ustida ishslash, fikrlashning ravon

bo‘lishiga ta’sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash, fe’l-atvor bilan bo‘lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.

- Pedagogning nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan erkin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

- O‘quvchilar jamoasini uyuştirishi, o‘quvchilarning muhim vazifalarni hal etishini ruhlantirishni, o‘z ishini to‘g‘ri uyushganligini tashkil etish bevosita o‘qituvchilarda yuqorida aytib o‘tilgan barcha umumiyligini va maxsus (tabiiy) qobilyatlarning shakllangan, rivojlangan bo‘lishi shartligini unutmaslik lozim.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdullajonova M.A. Formirovanie professionalnykh kachestv budushchego uchitelya v protsesse obucheniya v pedvuzax. Avtoref. diss. .. kand. ped. nauk.-T.: – 2015.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik . To‘plovchi Begali Qosimov.-T.: Ma’naviyat, –2009.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.: “O‘qituvchi”, –2016.
4. Anekeeva N.P. Jamoadagi ruhiy muhit. T.: “O‘qituvchi”. –1992 .
5. Baeva I.A. Psixologiya professionalnoy deyatelnosti uchitelya. L.:LGPI. – a2020,-18 s.
6. Baratov Sh.R. Mehnat tarbiyasi va uning psixologik asoslari., Buxoro., 1991y.
7. Virdjiniya N., Kvinn. Prikladnaya psixologiya.-Sankt-Peterburg.: Piter, –2010.
8. Gaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya natsionalnoy shkolы i eyo formirovanie v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya. Avtoref. diss. ... dokt. psixol. nauk. Sankt-Peterburg, –2019.